

## **MILLIY IQTISODIYOTNI DIVERSIFIKASIYALASH SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

**To‘xtaxo‘jayev Ma‘rifxon Abdurashid o‘g‘li**

Namangan davlat universiteti Iqtisodiyot yo‘nalishi magistranti

### **ANNOTATSIYA**

*Jahon amaliyoti tahlili ko‘rsatishicha, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlar dasturini amalga oshirish orqali aksariyat rivojlangan mamlakatlar innovatsion omillarga asoslangan barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlaganlar. Bu borada Yaponiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyotni modernizatsiyalash strategiyalarini amalga oshirish asosida barqaror iqtisodiy o‘shish sur‘atiga erishgan hamda iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Harakatlar strategiyasi, modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash, tranzit, “sanoatlashtirish”, “innovatsiya”, “iqtisodiyotni erkinlashtirish”, “iqtisodiyotni diversifikatsiyalash”, “inson kapitali”, “milliy boylik”, “sanoatlashtirish”, “innovatsiya”, “iqtisodiyotni erkinlashtirish”, “iqtisodiyotni diversifikatsiyalash”, “inson kapitali”, “milliy boylik”*

### **ABSTRACT**

*The analysis of world practice shows that through the modernization of the national economy and the implementation of the program of structural changes, most developed countries have achieved sustainable economic growth based on innovation factors.. In this regard, Japan, Germany, the Republic of Korea and the People's Republic of China have achieved sustainable economic growth and profound structural changes in the economy through the implementation of economic modernization strategies.*

**Keywords:** *Strategy of action, modernization, diversification, transit, “industrialization”, “innovation”, “liberalization of the economy”, “diversification of the economy”, “human capital”, “national wealth”, “industrialization”, “innovation”, “liberalization of the economy”, “Diversification of the economy”, “human capital”, “national wealth”*

### **АННОТАЦИЯ**

*Анализ мировой практики показывает, что за счет модернизации национальной экономики и реализации программы структурных преобразований большинство развитых стран добились устойчивого экономического роста, основанного на инновационных факторах.. В связи с*

*этим Япония, Германия, Республика Корея и Китайская Народная Республика добились устойчивого экономического роста и глубоких структурных изменений в экономике за счет реализации стратегий экономической модернизации.*

**Ключевые слова:** стратегия действий, модернизация, диверсификация, транзит, “индустриализация”, “инновации”, “либерализация экономики”, “диверсификация экономики”, “человеческий капитал”, “национальное богатство”, “индустриализация”, “инновации”, “либерализация экономики”, “диверсификация экономики”, “человеческий капитал”, “национальное богатство”.

## **KIRISH**

O‘tish iqtisodiyoti mamlakatlarida iqtisodiyotni modernizatsiyalash va uning tarkibini diversifikatsiyalash asosida innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tish vazifalari hal etilmoqda. Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda modernizatsiyalash loyihasi ishlab chiqilgandan so‘ng, tarkibiga sanoat, investisiya va innovatsiya siyosatlarini qamrab oluvchi strategiya tuziladi. Modernizatsiyalashda bir tomondan iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, sifat jihatdan takomillashtirish, pirovardida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash nazarda tutilsa, ikkinchi tomondan inson omilini taraqqiy ettirish masalasi turadi. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida “...davlatning innovatsion yangilanish dasturini shakllantirish, innovatsiya va investitsiyalardan samarali foydalanadigan yangi avlod kadrlarini, yangi sarmoyadorlar sinfini tayyorlash o‘ta muhim ahamiyatga ega. Buning uchun O‘zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo‘yicha milliy g‘oya, milliy dastur kerak. Ushbu dastur O‘zbekistonni jahondagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga tezroq olib chiqishga imkon yaratishi lozim.”<sup>1</sup> Ushbu uzoq muddatli strategik maqsadlarga erishishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish yetakchi o‘rin tutadi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida “tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг Олий Мажлисга муножаатномаси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. 48-б.

diversifikasiyalash hisobidan uning raqobatbardoshligini oshirish”<sup>2</sup> ustuvor vazifa sifatida ta’kidlangan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Jahon amaliyoti ko’rsatishicha, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning energiya, material va kapital sig’imkorligini yuqoriligi, zamonaviy texnologiyani o’zida mujassamlashtirmaganligi mahsulotlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Iqtisodiy adabiyotda “iqtisodiyotni modernizasiyalash” kategoriyasi “innovasiya”, “diversifikasiya”, “barqaror iqtisodiy o’sish”, “o’tish iqtisodiyoti” kabi tushunchalar bilan uzviy bog’liqlikda tahlil qilingan. O’tish iqtisodiyoti mamlakatlarida bozor munosabatlarini shakllantirish jarayonida modernizasiya nazariyalaridan deyarli foydalanilmagan va aksariyat hollarda “islohotlar” va “o’tish (tranzit) iqtisodiyoti” tushunchalari qo’llanilgan. Iqtisodiy islohotlar jarayonida birgina bozor institutlari samarali iqtisodiy rivojlanishni ta’minlab bera olmasligi ma’lum bo’ldi va iqtisodiy aylanmaga “modernizasiya”, “tarkibiy o’zgarishlar”, “milliy raqobatbardoshlik” tushunchalari kiritildi. Bunda modernizasiya aksariyat mamlakatlarda milliy dastur sifatida qabul qilina boshlandi. Iqtisodiyotni modernizasiyalash mexanizmi “iqtisodiyotni modernizasiyalash” kategoriyasi “sanoatlashtirish”, “innovatsiya”, “iqtisodiyotni erkinlashtirish”, “iqtisodiyotni diversifikasiyalash”, “inson kapitali”, “milliy boylik” kabi qator tushunchalar bilan uzviy birlikda o’rganildi. Natijada ushbu tushunchalar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik iqtisodiyotni modernizasiyalash kategoriyasining tavsifini to’liqroq ochib beradi va iqtisodiyotni modernizasiyalashning iqtisodiy qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun real sektor tarmoqlarini modernizasiyalash va diversifikasiyalash zarur. Bunda iqtisodiyotni modernizasiyalash diversifikasiyalash jarayonlari bilan parallel ravishda kechadi va o’zaro uzviy bog’liqlikda amal qilib, pirovardida innovasion taraqqiyotni ta’minlaydi. Innovasion taraqqiyot yuqori texnologiyani mujassamlashtirgan qo’shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarib, eksport hajmini ortishiga olib keladi. Bu esa o’z navbatida barqaror iqtisodiy o’sish sur’atlarini ta’minlab, milliy boylikni ko’paytirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ta’minlanadi. Iqtisodiy adabiyotda iqtisodiyotni modernizasiyalash kategoriyasiga turlicha iqtisodiy qarashlar berilgan. V. Gelman iqtisodiyotni modernizasiyalash deganda, dastlab, iqtisodiy o’sish, turmush darajasini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishga

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й. 6-сон

qaratilgan chora-tadbirlar majmuasini <sup>3</sup> tushunadi. Ushbu ta'rifning kamchiligi shundaki, chora-tadbirlar majmuasining o'zi bilangina modernizatsiyalash ro'y bermaydi, ular to'g'ri amalga oshirilishi zarur. Ye. Yasin fikricha ko'ra, iqtisodiy modernizatsiya "...barqaror rivojlanish va rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o'rin egallashni ta'minlash uchun davlat va undagi yetakchi tarmoqlarning jahondagi raqobatbardoshligiga erishishdir <sup>4</sup> ." Ushbu ta'rif modernizatsiyaning mohiyatini to'laroq ochib beradi, modernizatsiyalash orqali barqaror rivojlanishga erishish mumkin, lekin modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotning real tarmoqlarida, jumladan sanoatda iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'ladi. V. Krasil'nikov tomonidan iqtisodiyotni modernizatsiyalash kategoriyasiga to'laroq ta'rif berilgan. Uning fikriga ko'ra, "Umumiy ma'noda modernizatsiya XX asrning ikkinchi yarmida Avstraliya va Yangi Zelandiya, G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning yetakchi davlatlaridagi turmush darajasi va jamiyatning taraqqiyot darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan ijtimoiy va texnologik o'zgarishlar yig'indisidir <sup>5</sup> ." Mazkur ta'rifda modernizatsiya dasturi amalga oshiriladigan davlatning spetsifik xususiyatlari nazardan chetda qoldirilgan. Ayrim mamlakatning tajribasini ko'r-ko'rona mexanik ko'chirib olish, kutilgan natijani bermaydi. Ayrim iqtisodchilar fikriga ko'ra, iqtisodiy modernizatsiyaning konseptual g'oyasi "iqtisodiy, texnologik va institusional jihatdan ortda qolishni tan olish va uni yangi rivojlanish bosqichiga olib o'tish zaruriyati" <sup>6</sup> dan iborat. Ushbu ta'rifdagi ortda qolish tushunchasiga aniqlik kiritish zarur. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashni iqtisodiy kategoriyasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash ishlab chiqarish omillarini takomillashtirish asosida iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidan iborat uzluksiz jarayondir. Jahon amaliyotida iqtisodiyotni modernizatsiyalashga xos bo'lgan xususiyatlarni umumlashtirgan holda quyidagicha guruhlashimiz mumkin: Birinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash mamlakatning geosiyosiy va strategik maqsadlaridan kelib chiqqan holda muayyan milliy model asosida amalga oshadi. Ikkinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichi ma'lum muddat ichida amalga oshiriladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash loyihasini amalga oshirish muddatlari 10 yildan 30 yilgacha davom etib, jahonning rivojlangan mamlakatlarida XX asrning ikkinchi

<sup>3</sup> Гельман В. Авторитарная модернизация: каковы ее перспективы в России [Электронный ресурс] / В. Гельман. — 2008. <http://www.eu.spb.ru>

<sup>4</sup> Ясин Е.Г. Модернизация и общество [Текст]: докл. к VIII Междунар. науч. конф. Модернизация экономики и общественное развитие. / Е.Г. Ясин; М.: ГУ ВШЭ, 2007. С 6.

<sup>5</sup> Красильщиков В.А. Модернизация: зарубежный опыт и уроки для России // Модернизация России: условия, предпосылки, шансы. Сборник статей и материалов. Выпуск 1 / под ред. В.Л. Иноземцева. — М.:, 2009. С 85.

<sup>6</sup> Модернизация Российской экономики: структурный потенциал Колл. авторов / -М.: ИМЭМО-РАН, 2010. -С.5

yarmi va oxirgi choragida amalga oshirilgan modernizatsiyalash tajribalari diqqatga molik. Uchinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati o'zining harakatlantiruvchi kuchlariga ega (investisiya va ishchi kuchi). Milliy iqtisodiyotda investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi, investisiya normasi 25-35 foiz oralig'ida bo'lishi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi. To'rtinchidan, iqtisodiyotni modernizatsiyalashda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror o'sish sur'atlariga ega bo'ladi. O'zbekistonda 2005-2017 yillarda YAIMning o'rtacha yillik o'sishi 7 foizdan yuqori bo'lgan va bu o'sish sur'ati aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning mos ravishda ortib borishini ta'minladi. YAIMning tarmoq tarkibi va YAIMning o'sishiga alohida iqtisodiyot tarmoqlarining qo'shgan ulushi dinamikasidan ko'rinadiki, iqtisodiyotni modernizatsiyalashning milliy xususiyati industrilashtirishdan boshlanadi. Ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2000-2017 yillarda tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati 2,3 foizli punktga o'sgan bo'lsa, sanoatning ulushi mos ravishda 9,9 foizli punktga ortib, qishloq xo'jaligining qo'shilgan qiymati 12,9 foizli punktga kamaygan. Tahlil qilinayotgan davrda qishloq xo'jaligidagi o'sish sur'atlariga nisbatan sanoatning o'sish sur'atlari jadal bo'lgani uchun YAIM tarkibida sanoat tarmog'i ulushi ortgan holda, qishloq xo'jaligi tarmog'i hisyasi nisbatan pasaygan. Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalash konsepsiyasini samarali amalga oshirishda quyidagi ikkita yo'nalishdan biriga yondashiladi:

1. Modernizatsiyalashning institusional asoslarini takomillashtirib borish orqali milliy iqtisodiyotdagi barqaror o'sish sur'atlariga erishiladi.
2. Milliy iqtisodiyotdagi o'sish sur'atlari modernizatsiyalashga xizmat qiluvchi institusional infratuzilmani rivojlantiradi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, 2017-2021 yillarda O'zbekistonda umumiy qiymati 40 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi 649 ta investisiya loyihasini ko'zda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro'yobga chiqarish rejalashtirilganligi natijasida keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 barobar, uning YAIMdagi ulushi 33,5 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog'i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

## **REFERENCES**

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018. 48-b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. 6-son
3. Гелман В. Авторитарная модернизация: каковы ее перспективы в России [Электронный ресурс] / В. Гелман. — 2008. хттп //: [www.eu.spb.ru](http://www.eu.spb.ru)
4. Ясин Е.Г. Модернизация и общество [Текст]: докл. к ВИИИ Междунар. науч. конф. Модернизация экономики и общественное развитие./ Е.Г. Ясин; М.: ГУ ВШЭ, 2007. С 6.
5. Красилщиков В.А. Модернизация: зарубежный опыт и уроки для России // Модернизация России: условия, предпосылки, шансы. Сборник статей и материалов. Выпуск 1 / под ред. В.Л. Иноземсева. — М.:, 2009 . С 85.
6. Модернизация Российской экономики: структурный потенциал Колл. авторов / -М.: ИММО-РАН, 2010. -С.5